




## 2021- yil yanvar-dekabr oylari uchun Namangan viloyatidagi qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyatida jami **5610.3** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **110.1 %** ni tashkil etdi.




### 2021- yil yanvar- dekabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2398** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **127** taga oshdi.



### Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		Jamiga nisbatan ulushi % 01.01.2022
	01.01.2021- yil	01.01.2022- yil	
<b>Namangan viloyati</b>	<b>2271</b>	<b>2398</b>	<b>100,0</b>
<b>Namangan sh.</b>	728	738	30,8
<b>tumanlar:</b>			
<b>Mingbuloq</b>	84	79	3,3
<b>Kosonsoy</b>	268	259	10,7
<b>Namangan</b>	124	135	5,6
<b>Norin</b>	115	133	5,5
<b>Pop</b>	93	112	4,7
<b>To'raqo'rg'on</b>	92	100	4,2
<b>Uychi</b>	208	231	9,6
<b>Uchqo'rg'on</b>	141	174	7,3
<b>Chortoq</b>	154	168	7
<b>Chust</b>	169	167	7
<b>Yangiqo'rg'on</b>	95	102	4,3




**Ma'lumot uchun:** Viloyatdagi soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Namangan shahri (30,8 %), Kosonsoy tumani (10,7 %) va Uychi (9,6 %) tumanlarida, hamda eng kam ulushni Mingbuloq tumani (3,3 %), To'raqo'rg'on tumani (4,2 %), Yangiqo'rg'on Pop tumani (4,3 %), Pop (4,7 %) tumanlarida qayd etildi.



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **362,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan **55,1** mlrd. so'mga kamaygan bo'lib, 2020- yilning mos davriga 79,8 % ni tashkil etdi.




## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Namanagan shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **59,2 %**) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

■ 2021- yil yanvar-dekabr


■ 2020- yil yanvar-dekabr

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-dekabr oyida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **58.9 % ga** to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-dekabr oyi ko'rsatkichiga nisbatan **2.1 %** punktga ortdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **114.3 %** ni tashkil etgan holda **3305.9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.





## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **34,2 %** ni tashkil etdi yoki **1942,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan **121,2 %** ni tashkil etdi.





## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 231,8 mlrd. so'm yoki 2020-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 101,3 % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 5378.5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 115,3 % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda 4,1 % va 95,9 % ni tashkil etdi.

### IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd. so'mda)





**Hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari  
2021- yil yanvar-dekabr oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>5610,3</b>	<b>231,8</b>	<b>100</b>	<b>5378,5</b>	<b>100</b>
Namangan sh.	1553,9	18,7	8,1	1535,2	28,6
tumanlar:					
Mingbuloq	222,0	11,8	5,1	210,2	3,9
Kosonsoy	435,1	20,7	8,9	414,4	7,7
Namangan	471,1	17,2	7,4	453,9	8,4
Norin	248,0	11,6	5	236,4	4,4
Pop	434,5	73,3	31,6	361,2	6,7
To'raqo'rg'on	309,7	13,2	5,7	296,5	5,5
Uychi	589,7	22,3	9,6	567,4	10,6
Uchqo'rg'on	326,2	9,9	4,3	316,3	5,9
Chortoq	410,2	9,7	4,2	400,5	7,4
Chust	295,3	11,6	5	283,7	5,3
Yangiqo'rg'on	314,6	11,8	5,1	302,8	5,6

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-dekabr oylarida

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)</b>	<b>O‘sinh sur‘ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da</b>
<b>Namangan viloyati</b>	<b>5610,3</b>	<b>110,1</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	1553,9	101,2	27,7
tumanlar:			
Mingbuloq	222,0	151,3	4
Kosonsoy	435,1	103,5	7,8
Namangan	471,1	116,5	8,4
Norin	248,0	101,4	4,4
Pop	434,5	108,6	7,7
To‘raqo‘rg‘on	309,8	116,4	5,5
Uychi	589,7	112,6	10,5
Uchqo‘rg‘on	326,2	109,5	5,8
Chortoq	410,2	121,1	7,3
Chust	295,3	108,6	5,3
Yangiqo‘rg‘on	314,6	128,1	5,6

2021- yil yanvar-dekabr oylarida boshqa hududlarga nisbatan eng katta hajm Namangan shahar (1553,9 mlrd. so'm) Uychi (589,7 mlrd.so'm), Namangan (471,1 mlrd. so'm), Kosonsoy (435,11 mlrd. so'm) Pop (434,47 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

**2021- yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmda hududlarning ulushi**  
(umumiy hajmga nisbatan % da)



**Namangan viloyati statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**